



Bobur ZIYOMOV,

O'zbekiston Milliy universiteti Geodinamika va tektonika dotsenti v.b., PhD

E-mail: bobur.ziyomov82@mail.ru

Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti. PhD B.Janbekov tagrizi asosida

СЕЙСМИЧЕСКИ АКТИВНЫЕ РАЗЛОМЫ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА

Annotation

В статье обсуждаются возможности изучения на основе сейсмогенных зон Южного Узбекистана. Анализом материалов и выделением основных сейсмогенных зон на региональном уровне установлено, что они возникают в результате деформаций, связанных, например, с движением региональных разломов, структур, тектонических блоков. Известно, что сейсмический процесс состоит из процесса непрерывного накопления напряжений в земной коре и их внезапного исчезновения.

Ключевые слова: Сейсмогенные, региональные Разломы, структуры, морфоструктура, сейсмические, макросейсмические, инструментальные, напряжение, землетрясение, оценка, вибрация, балл, интенсивный, зона, изосейст, обсерватория, геофизический, разрывный, геодинамический, геосинклинальный, Южный Узбекистан.

JANUBIY O'ZBEKISTONNI SEYSMIK FAOL YER YORIQLARI

Annotatsiya

Maqolad Janubiy O'zbekiston seysmogen zonalari asosida o'rganish imkoniyatlari muhokama qilingan. Materiallarni tahlil qilish va regional miqyosda asosiy seysmogen zonalarni ajratib ko'rsatish orqali, masalan, mintaqaviy Yer yoriqlar, tuzilmalar, tektonik bloklar harakati bilan bog'liq deformatsiyalar natijasida paydo bo'lishi aniqlandi. Ma'lumki, seysmik jarayon yer qobig'ida kuchlanishlarning to'xtovsiz to'planishi va ularning to'satdan yo'qolishi jarayonidan iborat.

Kalit so'zlar: Seysmogen, mintaqaviy Yer yoriqlar, tuzilmalar, morfotuzilma, seysmik, makroseysmik, instrumental, kuchlanish, Zilzila, baholash, tebranish, ball, intensiv, zona, izoseyst, observatoriya, geofizik, uzilma, geodinamik, geosinkinal, Janubiy O'zbekiston.

SEISMICALLY ACTIVE FAULTS OF SOUTHERN UZBEKISTAN

Annotation

The article discusses the possibilities of studying the seismogenic zones of Southern Uzbekistan. Analysis of materials and identification of the main seismogenic zones at the regional level has established that they arise as a result of deformations associated, for example, with the movement of regional faults, structures, and tectonic blocks. It is known that the seismic process consists of the process of continuous accumulation of stresses in the earth's crust and their sudden disappearance.

Key words: Seismogenic, regional Faults, Structures, morphostructure, seismic, macroseismic, instrumental, stress, earthquake, assessment, vibration, ball, intensive, zone, isoseist, observatory, geophysical, rupture, geodynamic, geosynclinal, Southern Uzbekistan.

Kirish. Tabiiyki Yer qobig'ining alohida maydonlaridagi kuchlanganlik holatini o'zgarishi bu hududlardagi muhitning geofizik sharoitlarini o'zgarishiga olib keladi. Kuchlanishni yig'ili sababli geofizik sharoitlari o'zgargan hududlar potensial seysmik xavfli hisoblanadilar. Shu bilan bir vaqtida kuchlanishlardan bo'shalish uchun, ya'ni zilzilalarni hosil bo'lishi uchun tog'jinslarning zichligi past bo'lganligi sababli, faol yoriqlar zonalari hisoblanadilar. Kuchli zilzilalarning o'choqlari bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan uzilmalarining seysmik faollashuvni darajasini baholash seysmotektonika tahlil. Hududning bunday Yer yoriqlari bir vaqtning o'zida seysmogen zona Yer yoriqlar deb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'rileyotgan hudud hududlarida Qoratog', Cho'yanchin, Boysun va boshqalar kabi kuchli zilzilalar sodir bo'lgan. Kuchli Qoratog' zilzilasi ($M=7,4$; $N=35$ km, $J=9+1$ ball.) 1907 yil 21 oktabrda sodir bo'ldi. [1, 2] ma'lumotlari bo'yicha bu zilzilaning kuchi 9 (9-10) ballga yetgan.

B. Gutenberg va Ch. Rixter bo'yicha uning intensivligi $M=8$ teng. Yer osti silkinishlari ko'p bo'lib, ularning har biri gumburlagan tovush bilan birgalikda kuzatilgan. Qoratog' zilzilasi oqibatlarini o'rgangan [1] Toshkent seysmik observatoriysi ma'lumotlari asosida uchta kuchli silkinish bo'lgan deb hisoblaydi va ularning vaqtini keltiradi: 1-zilzila ertalab mahalliy vaqt bilan soat 9 dan 02 daqiqa o'tganda, ikkinchisi - soat 9:22 daqiqa va uchinchisi - 9:51 daqiqa sodir bo'lgan.

Mechitli tog'larida ko'tarilish yonbag'iirlarida o'pirilishlar (tuproqli va toshli) kuzatildi, Surxontog' tizmasining yonbag'iirlarida esa yirik Yer ko'chkilar qayd qilindi [3].

O'tazilgan makroseysmik tadqiqotlar [1] Qoratog' zilzilasi pleystoseyst hududining xaritasini tuzish imkonini berdi va uning kuchi Rossi-Frel shkalasi bo'yicha 9 ball deb aniqlandi. U tomonidan Shimoli-Sharqdan Janubi-G'arba cho'zilgan maksimal tebranishlar zonasini chegaralandi. Bu zonaning uzunligi 100 kmidan ortiq (taxminan 100 chaqirim), kengligi 10 km. Izoseystlar xaritasini tuzishda shuningdek B.Ya. Korolkov yig'gan ma'lumotlar ham hisobga olindi.

Ko'pchilikli tadqiqotchilar (M.M. Bronnikov, B.Ya. Korolkov, I.Ye. Gubin, A.M. Babaev, R.N. Ibragimov va boshqalar) kuchli Qoratog' zilzilalarini uzilishlar bilan bog'liqligini ta'kidladilar.

Cho'yanchin zilzilasi ($M=6,2$; $N=24$ km; $J=7-8$ ball) 1907 yil 27 oktabrda sodir bo'ldi. Zilzilaning pleystoseyst hududi Mechitli tog'ining sharqiy qismini egallaydi va Qoratog' zilzilasiga nisbatan kichikroq maydonga ega. Tog'larda yirik tuproqli ko'chkilar va toshli o'pirilishlar sodir bo'ldi. Cho'yanchi aholi punktida 3 ta qishloq tog' o'pirilishlari ostida ko'milib ketdi va ularda ovozalar bo'yicha barcha aholi halok bo'lgan [3].

Boysun zilzilasi ($M=6,2$; $N=18$ km; $J=8$ ball) 1935 yil 5 iyulda sodir bo'ldi. Maksimal tebranishlar hududi Sharqqa bo'rtgan va Janubi-G'arbdan Shimoli-Sharqqa cho'zilgan egilgan ellips shakliga ega. Uning kengligi 65 km ga yetadi, uzunligi 250 km gacha (Seysmichnost, 1972).

1968 yil 8 iyulda Boysun hududda yana kuchli zilzila ($M=4,8$; $N=25$ km; $J=7$ ball) sodir bo'ldi. Bu zilzilaning maksimal intensivligi 7 ± 1 ballga yetdi. Pleystoseyst oblasti shartli ravishda ajratildi va u janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa cho'zilgan ellips shakliga ega. Uning uzunligi 15 km, kengligi esa 7 km. Bu hudud qaysidir jihatdan 1935 yil 5 iyuldagagi zilzilaning izoseystlari shaklini takrorlaydi.


Buning uchun G'arbiy Hissor burmalangan zonasini va uning janubi-g'arbiy tarmoqlarini markaziy qismidagi strukturalarni yo'nalishga ko'ndalang kesib o'tuvchi geologik profillar tuzildi (1,2,3,4 rasmlar). Profillar Boysuntog', Surxontog' antiklinal ko'tarilishlarni, Mechitli va

Qoratog' tizmalarini, shuningdek Darvazkom tog'ini kesib o'tadi. Rasmidan ko'rinish turibdiki bu burmalangan zonaning janubiy borti ko'psonli uzilmalar bilan bo'lib tashlangan.

Mechitli antiklinal strukturası o'q qismida qator deyarli vertikal uzilmalar bilan buzilgan. Eng janubi-sharqiy Yer yoriqlar bo'yicha u Surxondaryo botiqligidan ajralib turadi.


Darvozkom ko'tarilishi shimolda tik uzilma bilan chegaralangan, janubdan esa strukturna tushilma turidagi uzilma bilan chegaralangan. Bu barcha yer yoriqlar bo'yicha eng yangi katta amplitudali intensiv, bir-biriga qarama-qarshi tektonik harakatlari yuz bergan [3]. So'ngra, janubi-g'arbda, Surxondaryo botiqligida paleozoy tog' jinslari mezozoy va kaynozoyning qalin qatlamlari tagiga kirib ketadi.

I-I Chizig'i bo'yicha qirqim.




1-rasm. Surxon tog' antiklinal ko'tarilmasini kesib o'tgan geologik qirqim.

II-II Chizig'i bo'yicha qirqim.




2-rasm. Mechitli antiklinal ko'tarilmasini kesib o'tgan geologik qirqim.

III-III Chizig'i bo'yicha qirqim.




3-rasm. Qoratog' antiklinal ko'tarilmasini kesib o'tgan geologik qirqim.

IV-IV Chizig'i bo'yicha qirqim.



4-rasm. Darvozkam antiklinal ko'tarilmasini kesib o'tgan geologik qirqim.




Shartli belgilari: 1. Intruziv tog' jinslar (granodioritlar $\gamma\delta$). 2. Effuziv tog' jinslar (granit porfir $\gamma\tau$). 3. Paleozoy yotqiziqlari. 4. Mezozoy va kaynozoyning yumshoq tog' jinslari. 5. Yer qobig'idagi yoriqlar. 6. Fleksura-uzilish zonasasi.

Tahlil va natijalar. Bu yerda, ehtimol, fleksura hosil qiluvchi cho'kish bo'lishi mumkin. M.X. Xadjibekov, A.A. Abdauazizov, E.P. Gordeev va boshqalar R.N. Ibragimov muharrirligida tuzgan O'zbekiston seismotektonikasining xaritasidan lavha keltirilgan. U 1907 yilda sodir bo'lgan kuchli seismik silkinishlar rayonini qamrab oladi. Rasmida ko'sratilishicha ko'rileyotgan hudud yirik mitaqaviy bloklararo Yer yoriqlar bilan chegaralangan bloklarga bo'lingan. Ularning neogen-to'rtlamchi davrdagi amplitudasi 2-4 kmgacha yetadi.

Bu Yer yoriqlarda magnitudası $M=4.5-6.5$ bo'lgan kuchli zilzilalarining o'choqlarining joylashganligi ularni seismogenligi to'g'risida guvohlik beradi (5-rasm). Bu zilzilalar o'choqlarini katta chuqurlikda (30 kmgacha) yotishi bilan tavsiflanadi va izoseystalari asosiy tektonik tuzilmalar bo'ylab cho'zilgan seismik energiyaning tarqalish katta maydonini qamrab oladi. Hududning bu seismogen uzilmalarining bosqcha tavsifli xususiyati bo'lib ularni Hisor-Ko'kshol siljishidan tarmoqlanishi va ularga xos barcha tavsifli xususiyatlarni qabul qilganligi hisoblanadi.

U asosan qarama-qarshi surilma siljishlarini boshidan o'tkazgan Hissor-Ko'kshol chuqur Yer yorig'i va Surxon-Ilyak fleksura-uzilish zonasasi o'ttasida joylashgan tog'oldi hududlarini qamrab oladi.

Bu hududda Mechitli, Qoratog', Darvozkam va Surxon tog' kabi antiklinal ko'tarilishlar va Zavar, Cho'yanchin, Rekka va Sangimil kabi sinklinallar, shuningdek yuqorida ko'sratilgan tuzilmalarining janubi-g'arbiy davomida chiziqsimon cho'zilgan yosh burmalar joylashgan. Ular vzbros-uzilma, sброс-siljishli va tikka surilmalar kabi uzilmalar bilan kesib o'tilgan bo'lib, ular Shimoli-Sharqda Hissor-Ko'kshol o'ng tomonli siljishga va janubi-g'arbda Surxon-Ilyak fleksura-uzilish zonasiga tayanuvchi uzilmalarining eng ko'p uchraydigan shakllari hisoblanadi. Ularни seismotektonik bloklarni chekllovchi hudud siljishlarning elementlari sifatida ko'rish mumkin. (5-rasmida) Qoratog' zilzilalar seriyasini maksimal silkinishlarining umumlashtirilgan izoseystasi keltirilgan.



5-rasm. Hissor-Ko'kshol yer yorig'i va Surxon-Ilyak fleksura-uzilish zonasining geodinamik ta'siridagi destruktura zonalari va Qoratog' zilzilalar seriyasini maksimal silkinishlarining umumlashtirilgan izoseystasi (Tuzuvchi: B.Z. Ziyomov 2024 yil).

Umuman Hissor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlarida kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zilzilalarning joyi va kuchini bashorat qilish uchun sifatlari va miqdori ma'lumotlardan foydalaniqli [6]. Miqdoriy baholash uchun hozirgi kuchli zilzilalar seysmostatistikasi va eng yangi vertikal tektonik harakatlar amplitudasi qo'llanildi (6-rasm).


Xulosa va takliflar. Shunday qilib Hissor-Ko'kshol seysmogen zonasini (I) Hissor tizmasining janubiy yonbag'ri bo'ylab cho'zilgan (6-rasm). U uzilish sati shimol va shimoli-sharrqa og'an tikka tushilma, surilmalar ko'rinishida kenglik va shimoli-g'arbiy uzilmalar tizimida ajratilgan bin nomli chucher yorig bilan bog'langan. Hissor tizmasining morfotuzilmasi G'arbiy Hissor burmalangan zonasining strukturalariga nisbatan ko'tarilgan. Bu qismida yorig gravitatsion va magnit anomaliyalarining bosqichlari ko'rinishida yanada yaqqol trassalanadi [4, 7, 8].

Mezozoy va paleogenda yorigi janubiy chegaralardagi uzoq cho'kish hudud nazorat qilgan. Neogenda, ayniqsa to'rtlamchi vaqtida yorig zonasida bir necha marta yangilangan intensiv, qarama-qarshi harakatlar bo'lib o'tadi. Ularning amplitudasi bu yerda 3-4 kmgacha yetadi. Yorig zonasidagi hozirgi tektonik strukturalarning eng keng rivojlanishni to'rtlamchi vaqtida yo'naliishi kenglik bo'yichadan to janubiy-g'arbgacha o'zgargan differensiyalangan harakatlar hisobiga ro'y berdi [4].

S.A. Zaxarov ma'lumotlari bo'yicha Hissor-Ko'kshol Yer yorig'i o'ng bort surilgan tipdagi eng yangi postsedimentatsion uzilish holati [8]. Hozirgi tuzilmalarning harakatchanligi Hisor-Ko'kshol seysmogen zonasini magnitudasi M=7,5 bo'lgan zilzilalarini hosil qilishi mumkin bo'lgan potensial seysmik xavfli hudud sifatida ko'rish imkonini beradi. Bu yerda maksimal kuchi intensivligi 9 ballik (Qoratog' 1907 y., M=7,4; Fayzobod 1943 y. M=6,0) va 9-10 ballik (Xait 1949 y. M=7,4) halokatli zilzilalar sodir bo'lgan. Yer qobig'ining 25-30 kmida va undan chuqurroqda joylashadi.

Qizildaryo-Langar-Qorail seysmogen zonasini (II) Qizildaryo yorig'i va Langar-Qorail fleksura-uzilish zonasini bilan ifodalangan Hissor-Ko'kshol yorig'ining janubi-g'arbiy tarmog'i bilan bog'langan. (6-rasm).

Seysmogen zona Shimoli-Sharqda Langar vzbros (uzilma) bilan ifodalangan [9,10] ma'lumotlari bo'yicha uning amplitudasi Pasra qishlog'i rayonida 7000 metrgacha yetadi. Langar Yer yorig'ining janubi-g'arbida Qorail, Belisaynak yoriqlari bilan almashadigan tikka yotuvchi fleksura-uzilish tuzilmalari keng rivojlangan.



6-rasm. Janubiy O'zbekistonning asosiy Yer yoriqlarining sxematisat xaritasi (2024 yilda ArcMap 10.8 texnologiya dastur versiyasi asosida B.Z. Ziyomov tomonidan yaratilgan).

Janubiy-G'arbiy yo'naliishda keskin pasayadi. Seysmotektonik sharoitlar bo'yicha zonada magnitudasi M=6,5 gacha va intensivligi 8 ballik zilzilalarini hosil bo'lishiga yo'l qo'yiladi.

Zilzilalarini joyi va kuchi bo'yicha bashorat 1999-2001 yillarda Qarshi va Qamashi rayonida magnitudasi M=5,1 va intensivligi 7 ballik zilzilalarini sodir bo'lishi bilan tasdiqlandi. Qizildaryo-Langar-Qorail seysmogen zonasini ajratilgunga qadar bu yerda bunday magnitudali zilzilalar sodir bo'limgan edi (Mavlyanov, Ibragimov va boshqalar, 1983).

Boysun-Kuxitong seysmogen zonasini (III) shu nomdag'i alp ko'tarilishlarini murakkablashtiruvchi Boysun va Kuxitong yoriqlar tizimi bilan ifodalangan (6 rasm). Boysun qismi asosan janubiy-sharrqa qulovchi (80°) vzbroslar (uzulma) bilan xarakterlanib, ularning amplitudasi 2500 metrgacha yetadi. Yer yoriqlarning Kuxitong qismi amplitudasi taxminan 2000 metrli tushilma-surilish bilan ifodalangan. Bu yoriqlarning shakllanishini asosiy bosqichi to'rtlamchi vaqtga to'g'ri keladi. Bu zona bilan o'rtacha magnitudali zilzilalarini sodir bo'lishi bog'langan. Ulardan eng kuchlilari - 1935 va 1968 yillardagi magnitudasi M=6,2 va intensivligi 7-8 ballik Boysun zilzilalari. Keyinchalik bu zona chegaralarida magnitudasi $M \leq 6,5$ va intensivligi 8 ballik zilzilalar sodir bo'lishi mumkin.

Surxontog'-Sherobod-Kelif seysmogen zonasini (IV) Surxontog', Kelif-Sherobod va Sherobod-Sariqamish antiklinal ko'tarilishlarini murakkablashtiruvchi kulisasimon joylashgan uzilmalar tizimi bilan bog'langan. (6-rasm). Bular asosan shimoli-g'arbgacha yotuvchi tushilmlar va surilmalar. Bunda alohida maydonlarda tog' jinslarining siljish amplitudasi - 3000 metrgacha yetadi. Yer yoriqlar chegaralarida yosh fleksurasimon burmalar keng rivojlangan bo'lib, ular yanada kichikroq uzilishlar bilan murakkablashgan. Eng kuchli zilzilaning magnitudasi M = 5, chuqurligi N=11-20 km va kuchi 7 ballini tashkil etgan.

Biroq to'rtlamchi davrdagi harakatlarning katta amplitudasi ba'zi mahalliy burmalar golotsenda paydo bo'lganligi va hozirgi davrda intensiv rivojlanayotganligini tasdiqlashda xizmat qilishi mumkin. Amaliyotni ko'rsatishicha Yer qobig'ining bunday maydonlari har doim seysmik xavfli bo'ladi va bu zonani potensial seysmik faollar qatoriga qo'shishtiga imkon beradi. Bu yerda magnitudasi $M \leq 6,5$ va intensivligi 8 ballik zilzilalar sodir bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

- Бронников М.М. Карагатское землетрясение// Изв.Геол.ком.-1908.-т.27.-№ 147.-с.212-287.
- Корольков Б.Я. Карагатское землетрясение 8 ноября 1907 года. Известия Турк. Отд. Русск. Геогр. Об-ва, Т.9, 1913.
- Губин И.Е. Закономерности сейсмических проявлений на территории Таджикистана. М.:Изд.АН.,1960, 464 с.
- Бабаев А.М., Кошлаков Г.В., Мирзоев К.М. Сейсмическое районирование Таджикистана.- Душанбе: Дониш, 1978.-70 с.
- Юрьев А.А. и др. «К новейшей тектонике Узбекистана. В кн.: Тектонические предпосылки нефтегазоносности мезокайнозойских отложений Узбекистана». Выпуск 8, САИГИМС, Ташкент, 1973, с. 72-122.

6. Белеловский М.Л. Некоторые черты глубинной тектоники Таджикской депрессии по геофизическим данным. В сб.: Тектоника Памира и Тянь-Шаня. М.: Наука, 1964.
7. Беккер Я.А., Кошлаков Г.В., Кузнецов Е.С. и др. К тектонике района г.Душанбе (Гиссарской долины) по результатам геолого-геофизических исследований// Поиски предвестников землетрясений на прогнозических полигонах .-М.: Наука, 1974 а.- С. 24-29.
8. Захаров С.А. Тектонические критерии сейсмического районирования долин р. Вахш, восточной части Гиссарской долины и примыкающих районов// Активизированные зоны земной коры. – М.: Наука, 1964.- С.248-254.
9. Зиёмов Б.З., Хусомиддинов А.С., Садиров Ф.Х., Ахмедов Ш.Б. К проблеме тектоники юго-западной территории Гиссарских гор Южного Узбекистана // Разведка и охрана недр. - 2021. - № 3. - С. 32-36.
10. Екшибаров С.В. Тектоника и нефтегазоносность Юго-Западного Гиссара.- Ташкент, //Изд-во АН Уз ССР, 1962.